

UDK:636.32

QORAKO'L QO'YLARINING KELIB CHIQISHI VA O'ZBEKISTONDA QORAKO'LCHILIKNING RIVOJLANISH OMILLARI

Aliyev D.D.

Ismoilov K.T.

Murodillayev Sh.H.

Abdullayeva Sh.M.

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universiteti**

Annotatsiya: Mazkur maqolada (tezis) qorako'l qo'y zotining kelib chiqishi, tarixi va O'zbekistonda qorako'lchilik ishining holati, mustaqillik yillarda qorako'lchilik sohasining rivojlanishi, olib borilgan ishlar, yutuqlar, kamchiliklar to'grisida tarixiy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Qorako'lchilik, qorako'l sur, guligaz, zarmala, qorako'lcha, mo'ynali qo'y, arabi, sherozi, qambar, chugurma, Buxoroi-Sharif, zot.

Annotation: This article provides historical information about the origin and history of the Karakol sheep breed, the status of the Karakol sheep breeding in Uzbekistan, the development of the Karakol breeding sector during the years of independence, the work carried out, achievements, and shortcomings.

Key words: Karakolchik, Karakol, sur, Guligaz, Zarmala, Karakolcha, fur sheep, Arabi, Shirozi, Qambar, Chugurma, Bukharai-Sharif, breed.

Kirish: Qorako'l qadimgi zotlardan bo'lib, bu zot Buxoro amirligi va Xiva xonligi davrida eng yaxshi qorako'l qo'ylarining otarlari Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Xorazm, Surxandaryo, Qoraqalpoq'ston hududlarida boqilib, ular uchun qishlik ozuqa tayyorlanmagan va yil bo'yli yaylovga haydalgan. Shu davrda Qorako'l terilari asosan mo'yna bozorlarida, jumladan, Sankt-Peterburgda, Kopengagen va Finlyandiya mo'yna auktionslari shuningdek Yevropa va Amerika, Germaniya, Italiya, Isroil, Turkiya, Mo'g'uliston, Xitoy, Rossiya va Ozarbayjon bozorlarida yuqori baholanib, Sankt-Peterburg va Fransiyaning Lion, Rossiyaning Nijniy Novgorod yarmarkalarida sotilgan. [1,6]

Tarixshunoslarning aytishicha "Qorako'l" atamasi kelib chiqishi to'g'risida turli olimlar turfa fikrlarni aytganlar. Deyarli ko'p mutaxasislar "qorako'l" so'zi qadimgi ossuriyaliklar tilida "karatyo'l" so'zidan olinib "qora atirgul" degan ma'noni anglatadi deb o'yasa, boshqalari esa bu terminni Pomirda joylashgan Qorako'l ko'l nomi bilan aloqador bo'lsa kerak deb bilishadi.[2,8]

Qorako'l qo'ylari issiq iqlimga moslashuvchan, chidamli hamda mustahkam ko'rinishga ega bo'ladi. Dasht-cho'l yaylovlarida joylashgan cho'l o'simliklari va iqlim omillari ularning jun hamda teri sifatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'p yillar mobaynida qorako'l qo'ylari bilan ishlagan olim Boris Vasinning ma'lumotlariga ko'ra hozirgi "qorako'l" qo'ylari 2 yoki undan ortiq qo'y guruhlarining chatishdirilishidan kelib chiqqan. Ulardan biri qo'pol junli semiz dumli qo'y,

ikkinchisi esa butun tanani o'rab turgan yarim qo'pol junli zotlarga tegishli qo'ylar bo'lgan. [3,7].

Ilmiy izlanuvchilarning asarlarida qorako'l qo'ylari Qarshi cho'li (Qarshi, G'uzor, Chiroqchi bekliklari), Samarqand va Kattaqo'rg'on tumanlarining janubiy va janubi-g'arbiy qismlarida, shuningdek, Buxoro vohasining Qarshi cho'li bilan chegaradosh hududlarda boqilgan. Shu davrlarda qorako'l qo'ylarini Qarluq, Nayman, Saroy, Qatag'on, Mang'it, Mesit, Olchin, Qovchin degan qabilalar boqishgan. Qorako'lchilik bilan Qashqadaryo vohasining janubiy qismida yashovchi turkmanlar (Sariq, Muborak, Poliq), Buxoro viloyati Olot tumanidagi arablar, Nurotadan kelgan o'zbek turkmanlari ham shug'ullanganliklari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. [4,9].

O'zbekiston mustaqillik yillarda ilm-fan taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Xususan, qorako'lchilik sohasida tadqiqot ishlari ko'لامи kengaytirilib, cho'l yaylovlarini saqlash va ko'paytirish, ozuqabop o'simlik navlarini yaratish, seleksiya-naslchilik saralash ishlarini yaxshilash, qorako'l qo'ylarining yangi zavod tiplarini yaratish tadbirlari olib borildi. Natijada qorako'l qo'ylarining 7 ta yuqori mahsuldor zavod tiplari, ya'ni "Buxoroi-sharif", "To'rtko'l", "Nurota", "O'zbekiston", "Saribel", "Avazcho'l", "Sarjal" yaratish yo'li bilan qimmatbaho teri eksporti hajmini oshirishga erishildi. Qorako'lchilik fanida ilk marta "zarmalla" rangli qo'y navlari O'zbekistonda yaratilganligi, bunda asosan qimmatbaho terida yassilashgan qalamgullikni ta'minlashga katta ahamiyat berilganligi aniqlangan.[5,10]

Tadqiqot materiali va usullari. Maqolada xronologik izchillik, vretrospektiv, tizimli va statistik taxlil kabi usullardan foydalanildi. Muammoning mazmunini ochib berishda O'zbekiston Milliy arxiv (UzMA), Samarkand, Buxoro va Qashkadaryo viloyati davlat arxivlari fondlari, turli ilmiy adabiyotlar, matbuot materiallariga asoslandi.

Natijalar va ularning tahlili. Qorako'l xonakilashtirilgan qo'ylarning eng qadimgi zoti bo'lib, arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, fors qo'zi terisi miloddan avvalgi 1400 yoldayoq mavjud bo'lgan. Qadimgi Bobil ibodatxonalarida qorako'l o'ymakorligi aniqlangan. Qorako'l "mo'ynali" qo'y nomi bilan mashhur bo'lsada, yosh qo'zilarning chiroqli naqshli ipak po'stinidan ko'proq foyda olina boshlandi. Ulardan sut, go'sht, mayin yog' va jun manbai bo'lib, mato yoki gilamga to'qilgan kuchli tola ham olishgan. Qorako'lning vatani O'rta Osiyo bo'lib, G'arbiy Turkistonning sobiq Buxoro amirligidagi Amudarja vodiysida joylashgan Qorako'l qishlog'i nomi bilan atalgan.

"Qorako'l" qo'ylari paydo bo'lgan hudud haqida aniq ma'lumot yo'q. Ko'pchilik olimlarning fikrlariga ko'ra bu noyob qo'ylar O'rta Osiyo hudududa paydo bo'lgan. Bu hududlar orqali janubi sharqiy Osiyo va old Osiyo hududlariga keng tarqalgan. Afg'onda bu zotli qo'ylar eng nafis hamda jahon xo'jaligi uchun nihoyatda qimmatbaho teri, jun va mo'yna mahsulotlarini yetishtirib beruvchilar hisoblanadi. Umuman olganda qorako'l qo'ylarining kelib chiqishi haqida olimlar turlicha fikrda. Jumladan; P.N.Kuleshov "Qorako'l zotli qo'ylarni qadimgi zot deb bilaman, ularni ko'paytirish uchun ming yillab naslchilik ishlari olib borilgan" deb bilgan. Shuningdek, u faqat tanlashgina emas, balki ongli ravishda juftlash ishi ham qadim zamonalardan beri olib borilganligini tasdiqlaydi. Rus olimi M.F.Ivanov esa "Qorako'l qo'ylarining qadimiy zot ekanligini ularning nasliy kuchidadir, bu

ayniqsa, boshqa zotlar bilan chatishtirganda birinchi bo‘g‘inning o‘zidayoq qorako‘llashib ketishda ko‘rish mumkin”—deb yozadi. Shuningdek ilmiy izlanuvchilar fikricha “qorako‘l” qo‘ylarining kelib chiqishi, ularning dumining shakli ozroq oriq “S” shaklidagi egri uchi bo‘lgan semiz dum ko‘rinishiga ega bo‘lishidadir deb bilishadi. “Qorako‘l” qo‘ylarining jun ranglari qora (arabi), kulrang (sherozi), jigarrang (qambari), pushtirang (guligazi) va sur ranglarga bo‘linadi. [1,2,3,4,5]

Adabiy manbalardan shu narsa ma’lumki, Buxoro va Xiva bilan Eron va Rossiya o‘rtasida savdo aloqalari rivoj topa boshlagan XVIII asrning o‘rtalarida savdogarlar qorako‘l terining mo‘ynalik sifatlariga e’tibor bera boshlaganlar va ko‘p o‘tmay ularni Buxorodan Astraxan, Qozon, Sibirga, Mo‘g‘uliston, Xitoy, Hindiston, Eron va boshqa mamlakatlarga olib keta boshlaganlar. XIX asr o‘rtalarida qorako‘l qo‘ylarni sof holda urchitish va ular yordamida boshqa barra teri beradigan qo‘y zotlarini yaxshilash maqsadida ular Rossiyaning Yevropa qismiga olib ketila boshlagan.

XIX asrning oxirlarida qorako‘l teriga bo‘lgan talab to‘xtovsiz o‘sib borganligi sababli Namibiyada o‘z fermerlari bo‘lgan nemis qo‘ychilari (u yerning yaylov sharoiti O‘rta Osiyonikiga o‘xshaydi) qorako‘l qo‘ylarini urchitish, ularni mahalliy (aborigen) qo‘ylar bilan chatishtirishga kirishdilar va nisbatan qisqa muddat ichida anchagina muvaffaqiyatlarga erishganlar.

O‘rta Osiyo chorvadorlari asrlar moboynida o‘z mehnatlari bilan qorako‘l qo‘ylarini takomillashtirib, teri sifatini yaxshiladilar. Zootexnik-olimlardan M.S.Karpov, M.F.Ivanov, R.R.Pravoxenskiy qorako‘l qo‘ylari ustida dastlabki tajribalarni olib boishgan. Shuningdek XX asrning 40-yillarida qorako‘lchilik ilmiytadqiqot instituti ilmiy xodimlari yaylov va ozuqaning teri sifatiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha izlanishlar olib bordi. I.N.Dyachinkov rahbarligida R.P.Pismennoy, S.M.Bugadova, T.B.Chexirinadze, F.Sharafutdinov, T.Axmadjanova, N.S.Bodalboev, R.Rahimov, E.M.Hasanov, B.I.Isayans, R.G.Valiev kabi tadqiqotchilar “Muborak” va “Qarnob” davlat naslchilik zavodida izlanish olib bordi Ilmiy muassasa xodimlarining say-harakati bilan sohada tub o‘zgarishlar amalga oshirilib, qorako‘l qo‘ylarning yangi navlari, yaylov va ozuqa masalalarida qator yangiliklar yaratishga erishildi. [11,12]

Adabiyotlarda keltirilishicha, mahalliy aholi qo‘y mahsulotidan keng foydalanib, yaxshi nav chugurmabop terilar yetishtirish maqsadida seleksiya ishlari olib borganlar. Chugurmabop teri 3-3,5 oylik qo‘zidan olingan. Chugurmalar rangining chiroyliligi, qung‘iroqli kokilchalarning go‘zalligi va tovlanish jihatdan qimmatli hisoblangan.. Ilgarigi vaqtida yangi tug‘ilgan qo‘zilarni so‘yish “gunoh” hisoblangan bo‘lsa, Yevropaliklar kelib qo‘zi terisini sotib ola boshlangandan keyin esa 1-3 kunlik qo‘zilarni teri uchun so‘ya boshlangan Chorvadorlar qorako‘l qo‘zilarining gulli chiroyli va jingalakli bo‘lishiga ahamiyat bergenlar. Shuning uchun tanlash qo‘zi terisining sifatiga qarab yuritilgan. Hozir ham Buxoro vohasida nasldor qo‘chqorlar yangi tug‘ilgan vaqtida terisining sifatiga qarab sotib olinadi.

Qorako‘lshunoslarning aytishicha qorako‘l qo‘ylari juda qadimgi zot bo‘lsa ham ularning qo‘zilari barra teri olish uchun so‘nggi asrlarda so‘yilgan.

Turkmanistondagi arxeologik qazishlar vaqtida olingan ma'lumotlardan bu joyda eramizdan 6 ming yil ilgari qorako'l qo'ylariga yaqin bo'lgan yog'li dumli qo'ylar yashaganligi aniqlandi. Ammo bu qo'ylarning juni qandayligini bilib bo'lmadi. Qorako'l qo'ylarining bizgacha yetib kelgan hozirgi turi o'sha zamonlarda mavjud bo'lgan qorako'l qo'ylarini ko'pgina dumbali-dag'al junli zotlar bilan chatishtirish natijasida vujudga kelgandir, zotan, yangi tug'ilgan qorako'l qo'zilar jun qoplaming rangi g'oyat xilma-xil ranglar yig'indisidan iborat ekanligi ana shundan dalolat bergen.

Muataxsisilarning etirof etishicha qorako'l qo'ylar ko'pgina mamlakatlarga olib ketilgan. Hozirgi vaqtida O'zbekiston, Afg'oniston va Namibiya, shuningdek, Janubiy Afrika Respublikasi qorako'l qo'ylar urchitiladigan markaz hisoblanadi. Eron, Mongoliya va yana 40 yaqin mamlaktlarda ham qorako'l qo'ylar urchitiladi

Qorako'l qo'ylarining kelib chiqishi qadim zamonlarga borib taqaladi. Bu zot O'rta Osiyo xalqlari tomonidan cho'l va chala cho'l zonalarida hayvonlarni mohirlik bilan tanlash yo'li bilan yaratilgan. Asrlar o'tdi, natijada go'zal qorako'l zoti paydo bo'ldi. Irsiyat kuchi bu turga boshqa zotlar bilan chatishtirilganda qadimiy kelib chiqishini saqlab qolishga imkon berdi (Shatskiy va Kravtsevich 2016). Qorako'l qo'ylarining junidan tayyorlanayotgan materiallarning xilma-xilligi sanoat ishlab chiqarishini tashqi va ichki bozorda yuqori raqobatbardoshlik darajasiga olib chiqadi. Mahsulot zamonaviy zamon talablariga javob berishi kerak. Biroq, barcha rangdagi yangi tug'ilgan qo'zilarning terilari - och kulrangdan sutgacha, po'lat, ko'k, marvarid va hatto qora ranglar bu zotni ajratib turadigan asosiy xususiyati bo'ldi. Qorako'lchaning turi va sifati homilaning yoshiga bog'liq (Fazilov va Gaziev 2016). Katta yoshli qo'ylarning fenotipi ko'pincha ularning tug'ilish paytidagi rangini aniqlashga imkon bermaydi, chunki qo'zichoq junining pigmentatsiyasida yosh hayvonning qizg'in, normal va xira qora rangiga qarab o'zgarishlar bo'ladi (Emirzax et. al. 2016). Yosh qo'ylarning jun qoplami kattalarnikidan qo'polligi bilan farq qiladi. Qorako'llarning 40% qora rangda, 75% voyaga yetgan katta qorako'llarning rangi kulrang, 95% qo'zilar 5 yoshdan keyin oq yoki pushti rangga ega bo'ladi. Sur rangli qorako'l qo'zilari qorako'lning 10 foizini tashkil qiladi. Shuning uchun selektsionerlar bu qiymatni oshirishga va kattalar hayvonlarining rangiga ta'sir qiluvchi omilni topishga faol harakat qilmoqdalar (Kulikova 2017). Zootexniklar oldiga qishloq xo'jaligi hayvonlarining mavjud genofondini, zot turlarini asrabavaylash, chorva mollari sonini barqarorlashtirish, sifatini yanada oshirishdek mas'uliyatli vazifa turibdi. So'nggi paytlarda zamonaviy ilm-fan qo'ylardagi jun depigmentatsiyasining determinizmining turli genetik jihatlarini o'rganib chiqdi.

Ba'zi tadqiqotchilar Qorako'l qo'y poygasi qadimgi (1300 yildan beri) kelib chiqqan va qadimgi Mesopotamiya hududlarida shakllangan deb hisoblasa, ba'zilari esa o'rta asrlarda kelib chiqqanligini va VIII asrda O'rta Osiyoga arablar tomonidan olib kelinganligini, uchinchi guruh vakillari esa o'rta asrlarda paydo bo'lganligini ta'kidlaydilar. tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, haqiqiy qorako'l zoti hozirgi davrda (XVI-XVIII asrlar) paydo bo'lgan va O'rta Osiyoda yangi tug'ilgan qo'zilarning teri sifatini yaxshilash yo'lida mahalliy qorako'l simon qo'ylarini tanlash natijasida shakllangan. Qorako'l qo'ylarining asosiy biologik xususiyatlari shundan iboratki, yangi tug'ilgan qo'zilarning po'stini har xil turdag'i (to'lqinli, bo'rtma, tog'

tizmasi va boshqalar) va shakldagi (naycha, qovurg'a, yassi) ilmoqlarga o'ralib, turli xil jingalak (ko'y lagi, ko'y lagi, elastik, ipaksimon va yaltiroq tolalardan iborat bo'lgan yassi, kavkaz, qovurg'asimon bo'lgan. Ranglar bo'yicha keng doirada (qora, kulrang, sur, jigarrang, pushti, oq), tovlanishi (quyuq, o'rta, och) va rang berish (ko'k) oltin, kumush, marvarid, bronza, platina, olmos, po'lat) bo'lishi aniqlangan. 19-asr oxiri 20-asr boshlarida bu qo'yalar issiq qurg'oqchil mamlakatlarda, namligi past, keng tekisliklarda, chala cho'llarda, o'simliklari yomon bo'lgan hududlarda keng tarqalgan bo'lib, ular yil davomida tabiiy yaylov sharoitida, qo'shimcha oziqalar berilmasdan, minimal xarajatlar bilan boqiladi. Ushbu biologik va ekologik xususiyatlarni bilish ba'zi mahalliy aholining turmush tarzini yaxshilash, qorako'llarning morfo-mahsuldorlik fazilatlarini rivojlantirish va hayotchanligini oshirish imkonini beradi.

XULOSA; Jaxonning turli davlatlarida XX asrda qorako'lchilik soxasini yo'lga qo'yish va rivojlantirishda O'zbekiston yetakchi rol o'ynadi. O'zbekistondan Sharqiy Yevropa, Afrikaning bir qator davlatlari, Eron va Afg'oniston kabi davlatlarga olib ketilib ko'paytirilgan. Qorako'l teri jaxon bozorida eng xaridorgir tovarlardan biri bo'lib, xalqaro auksionlarda noyob maxsulot sifatida yuqori baholanib kelingan. Shu sababli, Buxoro amirligi davrida va undan keyin ham qorako'lning ko'paytirish va eksport qilishga asosiy e'tibor qaratilgan. Ruslar iperiyasi davrida Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonda qorako'lchilikka ixtisoslashgan kolxozi va sovxozi faoliyat ko'rsatgan va ularda qorako'l teri yetishtirish yildan yilga ko'paytirib borilgan.

Qorako'lshunoslarning aytishicha eksport qilingan qorako'l terisi navlari ichida Qarshi bekligida yetishtirilgan ko'kish kulrang zoti alohida o'ringa ega. Qorako'l terisining muddatidan avval tug'ilgan qo'zi terisi juda mashhur bo'lib, ular Rossiya, Angliya, Turkiya, Xitoy, Hindiston, Eronga ko'p sotilgan. O'zbekistonda olimlar qorako'lning yuqori genetik va mahsuldorlik xususiyatlari Qoraqum, Muborak, Nishon, Pomuq, Konimex, Tomdi, G'uzor zotlari hamda "Nurota", "Saribek", "Abay", "Qizilqum" hayotchan zotlarini yaratganlar.

O'zbekistonda qorako'l qo'y zoti xalq seleksiyasi natijasida yaratilib, soxa bilimdonlarining sa'y-xarakati bilan qorako'l terilari o'zining nafisligi jixatidan jaxon mo'yna bozorining eng xaridorgir tovari bo'ldi. Og'ir kelgan yillarda ham qorako'l qo'yulari otarlarini ko'paytirish, naslchilik ishlarini rivojlantirish ishlari to'xtamadi. Mustaqillik yillarda qishloq xo'jaligidagi rejali islohotlar qorako'lchilik soxasini yanada rivojlantirish imkonini berdi. Qorako'lchilik soxasi rivojlantirish natijasida cho'l hududlarini xo'jalik jixatidan o'zlashtirish va rivojlantirish imkoniyati kengaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedov B.A. Mustaqillik yillarda qorako'lchilik sohasini rivojlantirish tadbirlari va ularning natijalari // "O'zbek davlatchiligi va madaniyati tarixida janubiy O'zbekistonning o'rni" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –Qarshi, 2018 – B.192-194. 23

2. Akhmedov B.A. Proceedings of the international scientific-practical conference dedicated to the 85th anniversary of the Research Institute of Karakul and Desert Ecology "Problems of desert-pastoral animal husbandry and fodder production." Samarkand, 2015, -P. 3.
3. Akhmedov B.A. "History of karakul industry in uzbekistan. Oriental Renaissance" Innovative, educational, natural and social sciences Tashkent., 2021, - P.1162
4. Gaziev A., Variability Of Some Selection Parameters of Karakol Sheep in the Conditions of the Sandy Desert //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – T. 9. – C. 59-61.
5. Khatamov A. Kh, "Meat Productivity of Karakul Sheep in Uzbekistan." (2023). Volume: 1 Issue: 6 in November-2021 c-153-155
6. Ismoilov K. T., "Interrelation of Viability and Productivity Indicators with Ethological Characteristics in the Growth and Development of Sur Karakol Lambs" CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES volume: 04 Issue: 02 | Mar-Apr 2023 ISSN: 2660-4159, 219-223
7. Ismailov K.T. SEASONAL VARIABILITYOF HEMATOLOGICAL INDICATORS OF KORAKOL LAMBS LIVING IN DIFFERENT ECOLOGICAL AREAS/ СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ НАУКИ, ОБЩЕСТВА И ОБРАЗОВАНИЯ сборник статей VII Международной научно-практической конференции, Состоявшейся 27 декабря 2024г. в г. Пенза, С- 290-295.
8. Ismailov K.T. INFLUENCE OF ADDING IODIZED SUPPLY SALT TO THE FEED ON THE HEMATOLOGICAL INDICATORS OF KORAKOL LAMB/ International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Germany-2024, p-22-26
9. K.T.Ismoilov, D.D.Aliyev, O.S. Avazov, Sh.H. Murodillayev // CHO'L-DASHT VA TOG'-TOG'OLDI EKOLOGIK HUDUDLARIDA URCHITILAYOTGAN SUR QORAKO'L QO'YLARI HAMDA QO'ZILARINING O'SISH VA RIVOJLANISHIGA MUHIT OMILLARINING TA'SIRI // VETERINARIYA MEDITSINASI. Maxsus son 3. 2023 98-101 bet
10. Xudayarov Sh.T. Qorako'l qo'ylarining kelib chiqishi va tashqi ko'rinishi. Международный научный журнал № 4 (100), часть 1 «Новости образования исследование в XXI веке» № 4 (100), часть 1.2022, -C.15-16
11. Mukhittdinov, Sh., Aliyev, D., Ismoilov, K., & Mamurova, G. The Role Of Biologically Active Substances In The Blood In Increasing The Productivity Of Sheep. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(03), 2020.